

**Qadimgi sug'diy bitiklar va ularda O'rta Osiyo qadimgi aholisi haqida
ma'lumotlar.**

Norboyev Firdavs Zafarovich

Samarqand davlat universiteti

Arxeologiya kafedrası magistranti

+998990484553

Annotatsiya: O'rta Osiyo hususan yurtimiz qadimgi aholisi haqidagi yozma manbalarda turlicha ma'lumotlar uchraydi. Hususan qadimgi sug'diy yozma manbalarini o'rganish, bu yozuvdagi O'rta Osiyo aholisiga oid ma'lumotlarni o'rganish, undagi faktlarni tahlil qilish borasidagi qilingan ishlar haqida maqola atroficha yoritiladi.

Аннотация: В письменных источниках можно найти различные сведения о древних жителях Средней Азии, особенно нашей страны. В частности, в статье освещается проделанная работа по изучению древнесогдийских письменных источников, изучению сведений о народах Средней Азии в этом сочинении и анализу содержащихся в нем фактов.

Kalit so'zlar: Buyuk ipak yo'li, Panjkent, Sug'diy til, "Avesto", Mug' tog'i, "Ardivisura Yashti", Devashnich, g'upat, bozkrom, dapirpat, "farmon yetkazuvchi".

Ключевые слова: Великий шелковый путь, Панджикент, согдийский язык, «Авеста», гора Муг, «Ардивисура Яшти», Деваштич, гупат, бозкром, дапирпат, «доставитель приказов».

Hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan sug'diy yozma manbalar ularda yoritilgan mavzu jihatidan diniy va diniy bo'lmagan manbalarga bo'linadi. Sug'diy yozma manbalarining ko'pchiligi Buyuk ipak yo'li o'tgan joylardan, xususan, hozirgi Xitoy hududidagi Sharqiy Turkiston o'lkasi-Turfon vohasi va Dunxuan mintaqasidagi "Ming budda" g'orlaridan topilgan. Ushbu yozma yodgorliklarning deyarli barchasi diniy

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

mazmunda bo'lib, ular orasidagi buddaviylikka oid matnlar xitoy tilidan, moniylikka oid matnlar o'rta davr forsiy tili hamda Eronda Ashkoniylar sulolasi hukmdorlik qilgan davrdagi pahlaviy tilidan, xristianlikka oid matnlar esa suryoniy tilidan sug'diychaga tarjima qilingan. Shuningdek, ilm ommasiga Yettisuv (Janubi-Sharqiy Qozog'iston va Markaziy Qirg'iziston) hududidan topilgan sopol buyumlar va tog' qoyalariga bitilgan o'nlab sug'diy bitiklar ma'lum. Bundan tashqari, "Mug' tog'i sug'diy arxivi" deb yuritiluvchi majmua VII asr oxiri-VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin noyob hujjatni o'z ichiga olib, ular Sug'd konfederasiyasiga tobe Panch hukmdorligi (Panjikent) saroyi hamda turli mulk hokimlari va amaldor a'yonlarga tegishli hujjatlar yig'indisidan iborat. Shuningdek, milodiy VII-VIII asrlarga taalluqli Chilhujra (Ustrushona/Tojikiston)dan topilgan sug'diy hujjatlar majmuasi bir necha jihatlar bilan Mug' hujjatlariga o'xshab ketadi.¹

Umuman olganda, sug'diy tilda bitilgan yozma manbalarning ko'pchiligi, taxminan eramizning to'rtinchi asrlariga mansub bo'lgan "Qadimgi bitiklar" va Hind daryosining yuqori oqimi havzalaridan topilgan toshbitiklardan tashqari, milodiy yettinchi asrdan o'ninchi asrgacha bo'lgan davrga oiddir. Shuningdek, yaqin yillarda topilgan Kul-to'ba sopol bitiklari (Aris daryosi havzasi/Janubiy Qozog'iston) milodning III-IV asrlarga oid yozma yodgorliklar sifatida e'tirof etilmoqda.

Sug'diy tildagi manbalar haqida. Sug'd yozuvi orqali bizgacha eramiz boshlaridan to X-XI asrlarga qadar yozilgan ko'plab noyob yodgorliklar yetib kelgan. Ular orasida turli davr va hududlarga oid ko'plab numizmatik materiallar (tanga yozuvlari), metall, sopol yog'och, charm, qog'oz va boshqa buyumlarga bitilgan matnlar, shaxsiy maktublar, diniy, axloqiy-falsafiy matnlar parchalari, xo'jalik, huquqiy va diplomatik hujjatlar bor. Hujjatlar nashr etilishi bilan barobar asosan rus tiliga, qisman esa ingliz, fransuz, yapon,

¹ Axmedov B. "O'zbekiston tarixi manbalari"(qadimgi va o'rta asrlar davri). "O'qituvchi", Toshkent, 2001-yil. 55 bet.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilingan. Lekin ayrim hujjatlarning mazmunini tushunishda, tarixiy, tilshunoslik jihatlarini talqin etishda olimlar orasida bahs munozaralar mavjud.

So'g'd, Sug'ud-Markaziy Osiyodagi qadimiy tarixiy-madaniy viloyat. Ilk bor-miloddan avvalgi VII-VI asrlarda qadimiy "Avesto"da tilga olingan. Bu nom XX-asr boshlarigacha saqlangan. Miloddan avval VI asrda Ahamoniylar sulolasi vakillarining qoyatosh bitiklarida Sug'uda shaklida qadimiy Eron saltanatiga tobe qilingan satrapliklardan biri, mamlakat nomi sifatida qayd etilgan. Yunon manbalarida-Sogdianoy deb tilga olinadi. Xitoy manbalarida-Suli deb ataladi. Sug'd yozuvi-yodgorliklari mamlakat nomini Sug'd yoki Sg'ud shaklida ko'rsatadi. Sug'dik yoki Sg'udik, Sug'diyonak-Sg'udiyonak shakllari "Sug'dga oid", "Sug'diy" kabi-ma'nolarda qo'llanadi. O'rta asrlarda arabiy, forsiy, turkiy manbalar mamlakat-nomini "Sug'd" shaklida qo'llaydi. "Sug'd" so'zining ma'nosi fanda har xil talqin qilib kelinadi. Masalan, So'ch-G'G' So'z-"kuymoq, yonmoq, porlamoq" deb izohlangan. Bundan Sug'dni "Muqaddas ilohiy olov (Zardushtiylik tasavvuriga ko'ra) bilan poklangan yer" kabi ma'noda talqin etishga harakat qilingan. Yana bir izohga ko'ra, "Sug'd" so'zi sernam, unumdor yer deb tushuniladi. Bunga hozirga qadar pastlik, suv yig'iladigan yer "S, Sug'ut" deb nomlanishini dalil qilib ko'rsatiladi. Avestoda Sug'd mamlakat nomi sifatida bir marta uchraydi. "Ardivisura Yashti"-("Obon Yasht") va Ardvi (Amudaryo) Ishkata, Paruta, Mouri, Suguda va Xvarazm tomon hayotbaxsh suvlarini eltadi, deya ta'kidlanadi.

Avestoning Videvdat qismida esa Axuramazda yaratgan ezgu yurtlardan biri Gava deyiladi va u yerda sug'dlar yashaydi deb ko'rsatiladi. Sug'd mamlakati 3 ta tarixiy-geografik hududni birlashtirgan. Samarqand, Buxoro va Kesh-Naxshab. Har 3 qism o'zaro tabiiy chegaraga ham ega edi: Zarafshon tog' tizmalari Samarqand va Kesh-Naxshab o'rtasini Karmanadan keyin Malik cho'li Buxoro va Samarqandni ajratib turgan. Buyuk ipak yo'lining markaziy tarmoqlari Sug'd orqali o'tgan. Natijada Sug'd

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

xalqaro savdo munosabatlarida muhim o'rin tuta boshlagan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab Sug'd savdogarlarining qishloqlari, shaharlarida esa ularning mahallalari paydo bo'lgan. Sug'diy tili xalqaro til rolini o'ynagan. Bu hol Xitoy sayyohlari tomonidan Sug'd chegaralari haqida noto'g'ri tasavvurlar hosil qilgan (Syuan Szan). Sug'd miloddan avval VI-IV asrlarda avval ahamoniylarga, so'ngra miloddan avval 329-yilda Makedoniyalik Aliksandr saltanatiga, uning davomchisi Salavk davlatiga, Yunon-Baqtriyaga tobe bo'lgan.²

Qadimgi sug'd tilidagi hujjatlar So'g'diyonaning o'zida (Mug' qal'asidan), Samarqanddagi Afrosiyob qal'asidan, Qirg'iziston va Sharqiy Turkistondan topilgan. 1961-1965-yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va Arxeologiya instituti ekspeditsiyasi Afrosiyobda V-VII asrlarga oid saroy harobalarini ochib o'rgandilar. Saroy mehmonxonasidagi devorlarga chizilgan turli suratlar va yozuvlar mavjud bo'lib, ular orasida oq kiyim kiygan Chag'oniyon elchisining surati ham bor. Uning tagida sug'd tilida bitilgan 16 satrdan iborat ishonch yorlig'i ham yozib qo'yilgan edi³. So'g'diylarning muhim hujjatlari Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Sharqiy Turkistondagi savdo koloniyalarida ham topilgan. 1902-1906-yillarda A.Steyn boshliq ingliz ekspeditsiyasi topgan epigrafik yodgorliklar ham mashhurdir. Bu ekspeditsiya Xitoyning g'arbiy tumanlarida Dunxuan nomli punktida qazuv ishlarini olib borib, yuzlab xitoycha, turkcha va boshqa xat hujjatlarining orasida sug'd yozuvida bitilgan nodir qo'lyozmalarni ham topishga muvaffaq bo'ldilar. Talos daryosining o'ng sohilida, hozirgi Talos shahridan 7-8 km shimolda joylashgan Qulunsoy hamda Teraksoy daralarida qoyatoshlarga o'yib yozilgan yozuvlar ham alohida e'tiborga molik. Bu yozuvlar IV-XI asrlarda sug'd kasabalaridagi ahvol haqida, O'rta Osiyo bilan Sharq mamlakatlari orasidagi savdo aloqalari va bunda sug'diylarning roli haqida

² Отаҳўжаев А. “Илк Ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари”, “ART-FLEX” Тошкент. 2010 у. 78 б.

³ Begmatov A. “Markaziy Osiyodan so'g'diy matn materiallari: Kioto universiteti hujjatlari. 2020-y “Mug tog'idan olingan hujjatlarning tanqidiy qayta nashri”

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

qimmatli ma'lumotlarni beradi. "Samarqand So'g'di eng so'lim joylardan bo'lib, So'g'd daryosining chap va o'ng sohillarida Buxoro chegarasidan to Buttam chegarasigacha muttasil davom etadi. Uni maysazor va bog'lar orqali sakkiz kunda aylanib chiqish mumkin. U erning har bir shahar va qishlog'ida qo'rg'on bo'lib, bular maysazorlar bag'rida go'yo suv irmoqlari bilan qavilgan bezakli yashil to'n kiygandek jilolanib turadi. So'g'd-Ollohning jannatmakon erlaridandir, unda eng yaxshi daraxt va mevalar o'sadi."

Bundan ming yil muqaddam Sug'dga tashrif buyurgan arab sayyohi uni ana shunday shoironatasvirlagan edi. Sug'dning poytaxti Samarqand shahri bo'lib, uning asosiy erlari Zarafshon vodiysiga joylashgan. Bu o'lkaning eng sharqiy shahri bo'lmish Panjikentni o'rta osiyolik geograflar boshqa kichik shaharlar bilan bir qatorda aytarli tafsilotsiz sanab o'tishgan. O'tgan asrning 50-60-yillarida Panjikent shahri tarixchi va filologlar e'tiborini jalb etdi. Gap shundaki, o'tkazilgan arxeologik ekspedisiya vaqtida Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi Mug' tog'ida joylashgan qo'rg'on xarobalarida qog'oz, teri va hatto yog'och tayoqlarga yozilgan qadimgi yozuvlar topildi. Mazkur hujjatlarning orasida diplomatik yozishmalar va yuridik hujjatlar, xo'jalik farmoyishlari, mansabdor shaxslarning hisobotlari bor. Qo'lyozmalarning deyarli barchasi sug'd tilida yozilgan⁴.

So'g'd tiliga oid asosiy manbalar IV-X asrlarga oid bo'lib, turli mazmundagi huquqiy hujjatlar (ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotti hujjatlari, tilxatlar), hukmdorlar (Sug'd, Shosh, Turk va farg'ona hukmdorlari), orasidagi yozishmalar, kundalik xo'jalik faoliyatiga oid hujjatlar, masalan xarajatlar yozilgan farmonlar va hujjatlardan iborat,

Bu hujjatlar So'g'diyonaning o'zidan, Samarqanddan, Qirg'iziston va Sharqiy turkistondan topilgan.

⁴ Axmedov B. "O'zbekiston tarixi manbalari"(qadimgi va o'rta asrlar davri). "O'qituvchi", Toshkent, 2001-yil. 57 bet.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

Bular orasida Mug' qal'asi xarobalaridan 1932-yili topilgan hujjatlar alohida ahamiyatga egali bilan ajralib turadi. Hujjatlar 1932-yili bahorida Tojikistonning Varzimiyor (hozirgi Zahmatobot) tumaniga qarashli Xayrabod qishlog'ida shu tumanning sobiq birinchi raxbari A.Po'lotiy tomonidan ochilgan. Mug' qal'asi qo'rg'onining xarobalaridan to'qima savat va hujjatlarni topishgan. Hujjatlar tushunarsiz yozuvda ipak qog'oziga yozilgan bo'lgan. Bir necha oylar mobaynida hujjatlar yuqori Zarafshon qishloqlarida qo'ldan qo'lga o'tib yurgan. Hujjatlar respublika poytaxti Dushanbega olib kelingan. Bu yerda hujjatlar sug'd tilida yozilganligi aniqlangan. Hujjatlardan fotonusxa olinib, Leningradga professor A.A.Freymaniga jo'natilgan. 1933-yil dekabrda 91 ta Mug' tog'i hujjatlari Leningradga olib kelingan. A.A.Freyman hujjatlar ro'yxatini Sug'd to'plamida e'lon qilgan. Chuqur tahlildan so'ng, 79 ta hujjat aniqlangan, jumladan, 74 ta sug'd tilidagi, bitta arab, uchta xitoy va bitta turk tilidagi hujjatlar topilgan. Ular har xil materiallarga: charmga, taxtaga va qog'ozga yozilgan edi. Hujjatlar sug'd dehqoni, podshosi Devashtich (708-722-yillar) va yirik mansabdorlarning, shuningdek, Xoxsar va Kishtut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bo'lgan bo'lib, So'g'dning VIII asrning birinchi choragidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.⁵ Mug' qal'asidan topilgan hujjatlar A.A.Freyman, A.V.Vasilev, I.Y.Krachkovskiy, M.N.Bogalyubov, V.A.Livshits, hamda O.I.Smernovalar tarafidan chuqur o'rganilgan. Mug' qal'a hujjatlarining topilishi tarixi va ular haqida dastlabki ma'lumotlar 1934-yil maxsus to'plam shaklida chop etildi. Ayrim hujjatlarning tarjimasi I.Y.Krachkovskiy va A.A.Freyman tomonidan 30-yillari e'lon qilingan. Huquqiy hujjatlar va maktublar tarjimasi, zarur izoh va tadqiqotlar bilan 1962-yili V.A.Livshits tomonidan nashr etilgan.

⁵ “Согдийские документы с горы Муг”. Выпуск II. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. Москва: «Наука», 1962 год

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

Mahalliy unvonlar. Sug'd konfederasiyasida mahalliy davlat boshqaruvining butun konfederasiyada bir xilda olib olib borilganligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, konfederasiyaning barcha hukmdorliklarida xuddi Panchdagi kabi mahalliy unvonlar tizimi mavjud bo'lgan. Masalan, Avat hukmdorning xo'jalik ishlari bo'yicha yordamchisi hisoblanib, famondor mahalliy unvon hisoblanadi. Shuningdek, Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida uchraydigan "otxona boshlig'i" ma'nosidagi ibora mahalliy unvon bo'lishi barobarida, Kesh hukmdorining unvoni sifatida tangalarda uchraydi. Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida aavazipat, (sug'orish bilan bog'liq ariq tozalash, hashar ishlariga mas'ul...), sug'diy hujjatida uchraydigan - pardozbon (saroyga qarashli bog'lar, xiyobonlar ustidan nazoratchi), g'upat ("daromadlar noziri", boshqacha aytganda, "moliya ishlari mutassaddisi"), bozkrom (bojxona noziri), naztig'riv ("hukmdor yordamchisi", "yordamchi"), dapirpat ("bosh kotib, devonxona boshlig'i"), parvonak krak ("hujjat to'plovchi", "farmon yetkazuvchi", "mukofotlarni topshirishga ma'sul"), arspan ("qishloqlar ustidan nazorat qiluvchi" yoki "haram og'asi"), katiyabshauz ("qishloq oqsoqoli"), urnikam ("qonun ishlari bilan shug'ullanuvchi mansabdor"), mag'upat ("bosh kohin"), vag'npat ("ibodatxona olovini saqlovchi") kabi mahalliy unvonlar boshqaruvda qo'llanilgan. Sug'd konfederasiyasi boshqaruvida ishlatilgan mazkur unvonlar tahlili ilk marotaba Mug' tog'i sug'diy hujjatlarni tarjima qilgan V.A.Livshis tomonidan muomalaga kiritilgan va turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan qayta o'rganilgan. Saroy xizmatchilariga davlat xazinasidan ularning lavozimiga qarab maosh belgilash tartibi va uning markazdan nazorat qilinishi masalasi ilk o'rta asrlardayoq shakllanganligi davlatchiligimiz tarixida moliya tizimi, g'aznachilikning o'ziga xos o'rin tutganligidan dalolat beradi. Xullas, Sug'd konfederasiyasi boshqaruvida qo'llanilgan unvonlar tizimi o'zining xususiyatlariga ko'ra markaziy va mahalliy ahamiyatga ega bo'lib, ularning bir qanchasi Panch boshqaruvi orqali sug'diy hujjatlarda keltirilgan.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

Markaziy unvonlar. Ilk o'rta asrlarda taraqqiy etgan Sug'd konfederasiyasini, Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida – ixshid shaklida, arabiy manbalarda – ixshid shaklida keltirilgan unvonli hukmdorlar boshqargan. Lekin Sug'd konfederasiyasini 650-670-yillarda boshqargan hukmdor Avarxuman va undan oldin hukmronlik qilgan Shishpir (640- yy.) nomidan zarb qilingan tangalarda ularning unvonlari – “podsho” deb keltiriladi. Afrosiyob devoriy suratlarida ham Varxuman “podsho” deb keltiriladi.

Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida katiyabshauz, “qishloq oqsoqoli” ma'nosini anglatadigan unvon egasi tilga olingan. Markaziy hokimiyat va mahalliy hokimliklar o'rtasidagi munosabatlar esa yirik zamindorlar, boy savdogarlar va shaharlik aslzodalar tomonidan tuzilgan “Oqsoqollar kengashi” orqali amalga oshirilgan. “Ixshid” unvonli hukmdorlar “Oqsoqollar kengashi” fikriga tayangan holda cheklangan hokimiyatga ega bo'lgan.

Tadqiqotchi A.Kubatin – ixshid unvoni asosida G'arbiy Turk xoqonligining yuqori unvonlaridan biri bo'lgan – shad unvonidan o'zlashganligini keltiradi.

Mazkur hujjarlar sug'diylarning Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Sharqiy Turkistondagi savdo koloniyalaridan ham topilgan. Bular ichida ayniqsa A.Steyn (1862-1943-yillar) tomonidan 1907-yili Dunxuan (Xitoyning Gansu viloyatida) va Turfonda topilgan hujjatlar, Talas daryosininig o'ng sohilida, hozirgi Talas shahridan 7 km shimolda joylashgan Qulansoy hamda Teraksoy daralarida qoya toshlarga o'yib bitilgan yozuvlar alohida etiborga loyiq. Bu yozuvlar IV-XI asrlarda So'g'd koloniyalarining ijtimoiy ahvoli haqida, ayniqsa O'rta Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari va bunda sug'diylarning ro'li haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Dunxuan va Xo'tan hujjatlari A.Steyn, Talasdan topilgan yozuvlar esa V.A.Kalluar, M.E.Masson, D.F.Vinnik, A.A.Asanaliyev, K.Ashiraliyev, U.Jumag'ulovlar tarafidan o'rganilgan.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak qadimgi sug'd tilida yozib qoldirilgan manbalar yurtimiz tarixini yoritishda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Qadimgi sug'd yozma manbalari asosida yurtimiz hududida yashagan qadimgi xalqlarning tili va madaniyati, jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini atroflicha o'rganishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov B. "O'zbekiston tarixi manbalari"(qadimgi va o'rta asrlar davri). "O'qituvchi", Toshkent, 2001-yil.
2. Begmatov A. "Markaziy Osiyodan so'g'diy matn materiallari: Kioto universiteti hujjatlari. 2020-y "Mug tog'idan olingan hujjatlarning tanqidiy qayta nashri"
3. Отахўжаев А. "Илк Ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари", "ART-FLEX" Тошкент. 2010 у.
4. Гойибов Б. К нумизматический истории Согда // Илмий ахборотнома. Научный вестник. – Samarqand, 2016. – №4 (98).
5. "Согдийские документы с горы Муг". Выпуск II. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. Москва: «Наука», 1962 год